

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

В заключение следует подчеркнуть, что статьи и литературные тексты Бехбуди стали мощным фактором эволюции сознания узбекского общества. Через слово – печатное и художественное – он сумел донести до современников простую истину, что образованная женщина не угроза традиции, а опора просвещения. Благодаря таким деятелям, как Бехбуди, в узбекской литературе зародилась гуманистическая традиция отстаивания прав обездоленных слоев – включая женщин – которая продолжается и в последующие десятилетия. Его наследие служит свидетельством того, как сила слова и просвещения может постепенно менять уклад целого народа.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. **Кем был Бехбуди?** // Зарафшон. – 2020. – 13 янв. – URL: <https://sv.zamews.uz/post/kem-bl-bexbu> (дата обращения: 27.04.2025).
2. **Ангальшева, Р., Саъдуллаев, Ш.** Голоса джадидов: место женщин в обществе // Nemolchi.uz. – 2024. – 20 мая. – URL: <https://nemolchi.uz/golosa-dzhadidov-mesto-zhenshhin-v-obshhestve/> (дата обращения: 27.04.2025).
3. **Исмоилова Н. У.** Женский вопрос в Узбекистане в современность // *Молодой ученый*. – 2014. – № 1 (60). – С. 226–228.
4. **Шадманова С.** Некоторые взгляды на жизнь женщин-мусульманок в Туркестане в конце XIX — начале XX в. (на основе материалов периодической печати) // *Pax Islamica*. – 2012. – № 1–2 (8–9). – С. 85–91.
5. **Алимова Д. А.** *История как история, история как наука*. – Ташкент, 2008. – 276 с.
6. **Шадманова С.** Некоторые взгляды на жизнь женщин-мусульманок в Туркестане в конце XIX — начале XX вв. (на основе материалов периодической печати) // *Pax Islamica*. – 2012. – № 1–2 (8–9). – С. 85–91.
7. **Бехбуди М.** *Избранные произведения*. – Ташкент, 2018. – 432 с.

XIX-XX asrlarda Turkistonda jadidchilik harakati

Rasulova Sevinch Muzaffar qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati va uning tarixiy-ijtimoiy ildizlari hamda asosiy g'oyalari hamda vakillarining faoliyati tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan matbuot faoliyati, teatr va adabiyot orqali jamiyatni uyg'otishga bo'lgan harakatlari tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Maqolada, shuningdek, jadidchilik harakatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turgan ideologik kuch sifatidagi roli ham ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: jadidchilik, tarixiy, adabiyot, g'oya, manba, XIX-XX-asr, mustamlakachilik.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Kirish: XX asrda jadidchilik harakati O‘rta Osiyoda ma’rifatparvarlik ruhini uyg‘otgan muhim ijtimoiy-siyosiy voqelik bo‘ldi. Bu harakatning yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, uning fikrlari, asarlari va amaliy faoliyati o‘z zamonasining ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib etgan. Behbudiy nafaqat publitsist va pedagog, balki xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan millat fidoyisi sifatida ham tanilgan. Uning izdoshlari esa, jadidchilik merosini davom ettirib, yangi davrda bu g‘oyalarga mos ravishda ijtimoiy va madaniy islohotlarni olib borishga harakat qilganlar. Behbudiy vafotidan so‘ng, uning izdoshlari sifatida bir qancha ma’rifatparvar insonlar yetishib chiqdi. Ular orasida Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ijodkorlar va arboblari bor edi.

Abdulla Avloniy – Behbudiy izdoshi sifatida maktab va tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” asarlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Avloniy tarbiya orqali milliy o‘zlikni uyg‘otishga harakat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov – jadid maktablarining asoschisi, arab grafikasi asosida ilk o‘zbek darsliklarini yozgan, matbuot sohasida faoliyat yuritgan. Uning harakatlarida Behbudiy uslubidagi islohotparvarlik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Fitrat esa, o‘zbek adabiyotini falsafiy va milliy yo‘nalishga olib kirgan shoir va mutafakkir sifatida taniymiz. Uning dramaturgiyasi va publitsistikasi Behbudiy boshlagan ma’rifiy yo‘nalishni davom ettirilgan.

Cho‘lpon va Usmon Nosir – garchi ular jadid harakatining keyingi bosqich vakillari bo‘lsa-da, Behbudiy boshlab bergan milliy uyg‘onish, adolat, taraqqiyot kabi g‘oyalarni ijodlarida targ‘ibot qilganlar.

Hamza Hakimzoda Niyoziy – teatr, she’riyat, dramaturgiya orqali xalqni o‘qitish, ayollar huquqlari hamda islom va zamonaviylik uyg‘unligi haqida yozgan asarlari orqali Behbudiy ruhini yoritib bergan ijodkorlardandir.

Behbudiy va uning izdoshlari hayotini o‘rganar ekanmiz, ularning asosiy e’tibori yosh avlod tarbiyasiga qaratilganini anglaymiz. Ular har doim o‘qituvchi, murabbiy va ziyolilarning jamiyatdagi o‘rnini ulug‘lab, ta’limni millatning eng muhim asoslaridan biri sifatida ko‘rganlar. Bu qarashlar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Taniqli jadidshunos olim Begali Qosimov o‘z davrida jadid bobomiz Behbudiyni shunday tavsiflagan edi: “Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi”.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Bugungi yangilanish jarayonida jadidlarning ma’rifatga yo’g’rilgan g’oyalari har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Buyuk taraqqiyparvar bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy jamiyatni ozod, hur, farovon, millatimizni esa bilimli, ziyoli, o’qimishli ko’rishni orzu qilgan edilar. Behbudiy merosi, uning sinovlar va mushkulotlarga to’la hayoti va faoliyati biz uchun hali ochilmagan mavzu, desak ham adashmaymiz. Mahmudxo’ja Behbudiy yangi usul maktablari faoliyatini tashkil etish, darsliklar yozish, kutubxona ochish bilan cheklanibgina qolmagan. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib borish, millat va Vatan ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo’lish uchun 1913 yildan matbuot ishlarini yo’lga qo’yadi va shu yilning aprelidan “Samarqand” gazetasi hamda avgust oyidan “Oyina” jurnali ko’rinish bera boshlaydi. 1913 yil 17 sentyabrda gazetaning 45-soni chiqqan bo’lib, bir tomondan, mustamlakachilar senzurasini, ikkinchi tomondan, yetarli mablag’ bo’lmagani sabab to’xtatilgan.

Alloma jamiyat hayotidagi illatlar, nuqsonlar hamda ilmsizlikni sahnada ko’rsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlikka da’vat etish maqsadida 1914- yil milliy teatrga ham asos soladi. Teatr sahnasida ijro etish uchun “Padarkush” dramasini yozadi. Muallif “Milliy fojea” deb atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va aniq bo’lib, o’qimagan bolaning buzuq yo’llarga kirib, o’z otasini o’ldirgani, nodonlik va jaholat haqida yoziladi. “Padarkush” dastlab 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda, 1914-yilning 27-fevralida Toshkentda sahnaga qo’yilgan. Ushbu sahna asari Turkistonni junbushga keltirgan qirg’inbarot yillarda ham sahnadan tushmay qoladi. Bu bir tomondan millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undash bo’lsa, ikkinchi tomondan o’zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Behbudiydan qutulish kimlar uchun kerak edi? Rossiya Buxoro amirligini zabt etishga jon-jahdi bilan intilayotgani, amirlikning ham unga qarshi kurashga shay ekanini hisobga olsak, Behbudiyni yo’q qilishdan qaysi taraf ko’proq manfaatli edi, degan savol tug’iladi. G’irrom siyosatini mustahkamlash uchun sovetlarning Behbudiy singari xalq hurmatiga sazovor kishilarga ehtiyoji katta bo’lgan. Amirlik esa “Yosh buxoroliklar”ning jiddiy kuchga aylanganini bila turib, Behbudiydek rahnamoni o’ldirishga botina olmas edilar. Shu sababli qulay imkoniyatni kutish ular uchun maqsadga muvofiq edi.

Mahmudxo’ja Behbudiy Turkistonning zabardast o’g’loni edi, uning Turkiston xalqi ozodligi, farovonligi, obodligi uchun qilgan xizmatlari bugungi kun uchun ham biz uchun o’rnak va ibratdir.

Shu o’rinda Mahmudxo’ja Behbudiyning “A’molimiz yoyinki murodimiz” nomli maqolasida ko’tarilgan masalaga e’tibor qaratamiz. U yozadi: “Agarda to’y va ma’rakag’a qadimgidek oqcha to’kmasak, ul oqchani na qilmoq kerak? Munga javob berilurki, to’y va ma’raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortuqcha pul ila bolalarni musulmon va rusi yaxshi o’qitulsun. To’y-u ma’rakag’a sarf qilinaturg’on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig’a sarf qilinsun. To’y va ma’raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablarig’a berilsun va bu oqchadan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbul va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to’y-u ma’rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O‘runburg va Qozong‘a usuli ta’lim o‘rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. Hukumat maktablarig‘a kirmoq uchun ruscha bilmoq va imtihon bermoq lozim. Va bu imtihonni bermoq uchun har bolani ikki sana ruscha o‘qutub, tarbiyat etmoq kerak”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadid ajdodlarimizning boy va ma’naviy merosini o‘rganishimiz, ularning purma’no va ezgu g‘oyalarini jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlarga og‘ishmay tatbiq etishimiz, men va men singari tengqurlarimizning umr mazmuni, yorug‘ maslagi bo‘lib qolmog‘i zarurdur.

XIX–XX asrlarda Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqimizni uyg‘otishga, ilmga, ma’rifatga chorlashgan katta harakat bo‘lgan. Jadidlar eski usuldagi ta’limni isloh qilgan, yangi maktablar ochgan, gazeta-jurnallar chiqargan, xalqni ogohlikka chaqirgan. Ular millatning ko‘zini ochishga, erkin va obod kelajak qurishga harakat qilgan va yordam bergan. Jadidlarning o‘sha paytdagi fidokorligi, kurashi bugungi kunda ham qadrlanib kelinadi. Ularning orzulari – ozod, bilimli, taraqqiy etgan yurt – bizning bugungi hayotimizga zamin bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashidjon Qori-Niyoziy. Jadidlar va ularning ma’rifiy faoliyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
2. G‘oyibnazarov B. Turkiston jadidchiligi: tarix va taraqqiyot yo‘li. – Samarqand: Zarafshon, 2010.
3. To‘raqo‘ziev Sh. Jadidchilik tarixidan saboqlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
4. Saidov A. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy harakatlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Rashidov F. Turkiston jadidlari va matbuot. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
6. Axmedova M. O‘zbek jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyati. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Allamurodov O. Jadidchilik harakati va uning o‘zbek adabiyotidagi ifodasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2000–2005.

ORFOGRAFIK MALAKALARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK ASOSLARI: YOZISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI, ORFOGRAFIK XATOLAR TAHLILI

Qosimova Sevara

*Alfraganus universiteti O‘zbek tili filologiyasi
fakulteti 2-kurs magistranti*